

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TUSHUMLARI VA BYUDJET TIZIMINING TAHLILI

Pulatova Dildora Obid qizi

*Toshkent arxitektura-qurilish Universiteti
Arxitektura fakulteti Interyer Dizayn yo'nalishi
1-kurs talabasi*

polatovadildora364@gmail.com

Mavlonova Nurxon Ismoiljonovna

*Toshkent arxitektura-qurilish Universiteti
Arxitektura fakulteti tyutori*

nurxonmavlonova3@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.02.2026

Revised: 05.02.2026

Accepted: 06.02.2026

KALIT SO'ZLAR:

*solliq, tushumlar,
byudjet,
xarajatlar, solliq
stavalari, investitsiya,
daromad*

Ushbu Dissertatsiya ishida O'zbekiston Respublikasi solliq tizimi va solliq tushumlarining byudjetdagi salmog'i, davlat byudjeti tarkibi tahlili va vazifalari o'rganilgan. Respublika solliqlari va solliq stavalari ko'rsatkichlari, ularni yanada optimallashtirish choralari va solliq yukini kamaytirgan holda tushumlarning byudjetdagi salmog'ini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Solliq tizimini samarali isloh qilish yo'li bilan yashirin iqtisodiyotga barham berish va bu orqali davlat byudjeti daromadlarini yanada oshirish, byudjet taqchilligini kamaytirish hamda byudjet xarajatlarini tizimli nazorat qilish bo'yich taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish

Dissertatsiya ishining dolzarbligi. Iqtisodiyotning erkinlashuvi, bozormexanizmini real holatda harakatlanishi ko'p jihatdan shu davlatda budget-soliqsiyosatining qay daraja ekanligiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida budget-soliqmexanizmini takomillashtirishgaqaratilgan davlat siyosatini dolzarbmumammolaridan biri hisoblanadi. Davlatning budget siyosatini asosiy belgisi budgetmablag'laridan samarali foydalanish orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiyrivojlantirishga erishish bo'lsa, soliq siyosatining asosiy belgisi bo'lib soliqyukining iste'molchilar bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida optimal nisbatinibelgilashdir. Bugungi kunda soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadalrivojlantirish hamda mamlakatning investisiyaviy jozibadorligini yaxshilash - soliqsiyosatini takomillashtirishning ustivor yo'nalishlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham boshqa ko'plab davlatlar singari, o'zining turli davlat xarajatlari va xizmatlarini moliyalashtirishda ko'p jihatdan soliq tushumlariga tayanadi. So'nggi yillarda hukumat byudjet daromadlarini oshirishni ta'minlash maqsadida soliqlarning yig'iluvchanligini yaxshilash yo'llarini o'rganmoqda. Shuningdek, soliq tizimidagi islohatlarni samarali va shaffof amalga oshirish davlatning iqtisodiyotini rivojlantirish va barqarorlashtirishda muhim rolni o'ynaydi. Byudjetning barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Darhaqiqat, mamlakat milliy xo'jaligini moliyaviy jihatdan tartibga solish, davlat byudjeti daromadlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirish jarayonlaridavomida amalga oshiriladi. Rejalashtirish jarayonining o'zidayoq Davlat byudjet xarajatlarining umumiy hajmi gorizontaliga, ya'ni tarmoq, vazirlik va maqsadlikesimlarda va vertikaliga, ya'ni boshqaruvning turli darajalariga muvofiq ravishdataqsimlanib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi uchun tegishli sharoit yaratiladi. Byudjetdan moliyalashtirish jarayonida esa davlat o'zining Sixtiyoriga kelib tushayotgan pul mablag'larini rejalashtirilgan tadbirlar doirasida va'undan tashqarida keng manyovra qilish imkoniga ega bo'ladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni ta'minlash, iqtisodiyot sektorlarining investitsiyaviy jozibadorligi va faolligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirilishi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yuqori sur'atlarda o'sishiga va aholi farovonligi oshishiga erishishda qo'shimcha turtki bo'ldi. Buning natijasida qator yillar mobaynida Davlat byudjeti profitsit bilan ijro etib kelingan, shu jumladan iqtisodiyotga soliq yuki izchil kamayib

borayotgan birsharoitda uning daromad qismi bajarilishi ta'minlanmoqda, shuningdek, uningxarajat qismini ijtimoiy yo'naltirilganligi saqlab qolinmoqda. Byudjet tizimining yangi yo'nalishlari va soliq siyosatini yanadatakomillashtirish masalalari to'grisida Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonida: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarinita'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda —daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlarqatoriga kirish uchun zamin yaratish. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vayillik inflatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgachapasaytirish. Davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichkimahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash. Har bir tuman budjetining kamida 5 foizini —Fuqarolar budjetidasturidoirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishgasarflashni tashkil qilish. Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingantashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash masalalarini alohida ta'kidlagan

Dissertatsiya ishining maqsadi. Nazariy qarashlar va tahliliy natijalarni O'rganish orqali ushbu Dissertatsiya ishi Respublika soliq va byudjet tizimlari siyosati va yangicha tendensiyalarini ishlab chiqish va joriy etishni o'rganadi.¹

Soliqlar yig'uvchanligi va byudjet daromadlarini oshirishning ilg'or xorijtajribalarini qo'llash va natijalarini tahlil qilish bilan birga avvalgi yillar ko'rsatkichlarini solishtiradi. Amaliyot, nazariya va zamonaviy tendensiyalarni nazorat ostida birga qo'llash orqali biz mamlakatimizda oqilona soliq siyosati hamda samarali byudjet tizimiga erishishda vosita bo'ladigan tarmoqlar va strategiyalar haqida foydali tushunchalarga ega bo'lishimiz mumkin.

Dissertatsiya ishining vazifalari;

- Soliq tizimi, siyosati va munosabatlarini izchil o'rganish;
- Soliq yuki va stavkalarini pasaytirish va tizimli nazorat qilish;
- Soliqlar yig'uvchanligini oshirish orqali byudjet daromadlarini oshirish;
- Respublika va Yozyovon tumani soliq tushumlari tahlili;
- Davlat budjetining iqtisodiy mazmuni, funksiyalari va vazifalarini o'rganish;
- Davlat budjeti daromadlari tarkibini tahlil qilish;
- Davlat budjeti xarajatlari yo'nalishlarini tahlil qilish;
- Byudjet taqchilligini kamaytirish masalalari.

Dissertatsiya ishining ob'ekti. Ushbu Dissertatsiya ishining ob'ekti sifatida Respublika va Yozyovon tumani soliq tushumlari ko'rsatkichlari va davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o'rganildi. Yunusobod soliq tushumlari tarkibi va dinamikasini tahlil ko'rib chiqildi. Bunda Yunusobod tumani mahalliy budjetiga soliq tushumlarining o'tgan 2018-2024 yillardagi tarkibi va dinamikasi mukammal darajada tahlil qilindi Yunusoboddagi soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, asosiy soliq to'lovchilarni aniqlash, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning soliq tushumlariga ta'sirini tahlil qilinib o'rganildi. Dissertatsiya ishining maqsadi: Yunusobod tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ajratilayotgan byudjet mablag_laridan foydalanish samaradorligi aniqlash va asoslash.

Soliq imtiyozlari samaradorligini baholash, ularni ta'minlashdagi muammolarni aniqlash, soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Byudjet xarajatlari samaradorligini baholash, samarasiz xarajatlar moddalarini aniqlash, byudjet xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soliq tushumlari tarkibini tahlil qilish. Yirik soliq to'lovchilarning soliq tushumlarining umumiy miqdoriga ta'sirini baholash. Yunusobod tumanida soliq tushumlari dinamikasini Toshkent shahrining boshqa tumanlari bilan solishtirish orqali aniqlashdan iborat Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati: Soliq tushumlari va byudjet tizimini tahlil qilish mahalliy moliyaning faoliyati haqidagi bilimlarni kengaytirish va iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga hissa qo'shish imkonini beradi. Dissertatsiya ishi soliq va byudjet ma'lumotlarini tahlil qilishning yangi metodologiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Umuman olganda, Yunusobod tumanida soliq tushumlari va byudjet tizimini tahlil qilish mahalliy moliya boshqaruvi samaradorligini oshirish, budjet jarayonining ochiqqligini ta'minlash va hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Dissertatsiya ishining predmeti. Hozirgi tez rivojlanish va globalashuv jarayonida yangi tizim va innovatsiyalarni qo'llagan holda Respublikamiz soliq tizimi yanada isloh etish hamda soliq tushumlari va byudjet daromadlari oshirishda yangi natijalarga erishish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini o'rganish. Dissertatsiya ishining tavsifi. Dissertatsiya ishining birinchi bobida Respublika soliq va byudjet tizimlari va ularning nazariy huquqiy asoslariga alohida to'xtalish bilan birga soliqlar va soliq tushumlarining iqtisodiy mohiyati, obyektiv zarurligi, soliq siyosati va soliq tizimiga oid bilimlar va yangiliklar jamlangan. Davlat byudjeti tizimida esa, byudjetning iqtisodiy mazmuni, funksiyalari va vazifalari keng tavsiflangan. Ikkinchi bob amaliy natijalar va tahlillarga bag'ishlangan. Respublika soliq Ko'rsatkichlari,

ularning davlat byudjetidagi ulushlari bilan birga Dissertatsiya ishining obyekti sifatida olingan Yozyovon tumani Davlat soliq inspeksiyasi soliq tushumlari ko'rsatkichlari yillar kesimida tahlil qilib chiqilgan. Davlat byudjetining amaldagi holati va byudjetning tarkibi ham birma-bir tahlillar asosida ko'rib chiqilgan. Uchinchi bobda esa yuqordagi boblarda keltirilgan bilimlar va tahlillar natijalari umumlashtirilgan holda bir qator xulosalar va O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari hamda Davlat byudjeti daromadlarini oshirishda soliqlar yig'uvchanligidagi muammolar va ularni bartaraf etuvchi masalalar tariqasida aniq taklif va tavfsiyalar ishlab chiqilgan. Dissertatsiya ishining tarkibiy tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida sinfiy hukmron kuch sifatida yuzaga chiquvchi davlatning paydo bo'lishi va uni faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda soliq kategoriyasi davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqeylik sifatida yuzaga chiqishini ta'kidlash lozim. Soliq tushunchasi bu tor ma'noda davlat ixtiyoriga boshqalardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi. Ma'lumki soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishibu ob'ektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha sub'ektlar ham real sektorda (mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish sohasida) faoliyat korsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy samarasiz Bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'ektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, tibbiyot, fan, maorif, madaniyat va boshqa.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni ob'ektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi. Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari. Davlatning funktsiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'lar shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat bo'lib, ana shu murakkablik bevosita soliq'larga ham tegishliki, bu holat soliqlarni iqtisodiy

mohiyatini teran anglashni taqozo etadi. Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim. Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa tolovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliq tushumlari davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir. Soliqlar - bu byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan huquqiy va me'yoriy qonunlar bilan ta'minlanadi. Shunday ekan, soliqlarni tolamaslikka, soliq ob'ektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko'rsatishga na huquqiy va na jismoniy shaxslarning haqqi yo'q. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 16-moddasida – —Soliq deganda ushbu Kodeksda belgilangan, O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi.

2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi q'onuni O'RQ-589-sonli 2019 yil 9 dekabr Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar O'rtasida vujudga keluvchi obektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, milliy daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi. Bugungi kunda davlat budjeti daromadlari tarkibining 94-95 foizini soliqlar tashkil qilmoqda. Soliqsiz daromadlar esa 4-5 foizni tashkil qilmoqda. Bu ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda kuzatilayotgan holat hisoblanadi. Mamlakatimizda soliq stavkalarining yildan yilga tushirib borilishi o'z navbatida soliq to'lovchilarga hamda davlat budjetiga foyda keltirmoqda. Chunki soliq stavkalari unchalik

yuqori emasligi soliqlarning o'z vaqtida hamda to'liq to'lanishiga olib kelmoqda. Yana bir holatga alohida e'tibor qaratishimiz kerakki mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng davlat xarajatlarini salmoqli qismini aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab quvvatlashga yo'naltirmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash xarajatlari jami xarajatlarning 60% yaqinini tashkil qiladi. Bu o'z navbatida davlat budjeti mablag'lari asosan aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab quvvatlashga qaratilganidan dalolat beradi. 2023 yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va 2024 – 2025 yillar uchun mo'ljallar joriy davrda, global o'zgarishlar hisobiga yuqori darajadagi noaniqlikning saqlanib qolinishi Davlat budjetini shakllantirish va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashtirishni murakkablashtirgan. 2023 yilda ichki talabning faol saqlanib qolishiga qaramay iqtisodiy O'sishning sekinlashishi prognoz qilingan. Iqtisodiy o'sish 2022 yildagiga nisbatan pastroq, ya'ni 5,3 %ga prognoz qilingan. Iqtisodiy faollikning tiklanishi hisobiga mos ravishda 2024-2025 yillarda iqtisodiy o'sish 5,6 va 6% gacha ko'tariladi. Biroq, noaniqliklar saqlanib qolmayotgan sharoitda turli omilli xatarlar mavjudligi hisobiga ushbu prognozlar nobarqarorligicha qolgan. Jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar va pandemiya davridagi talabning kechiktirilganligi oqibatida dunyo miqyosida inflyatsiya darajasi keskin o'sdi. O'zbekistonda 2022-yilda inflyatsiya darajasi 12,3%ni tashkil etdi. Bularning barchasi inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlar prognozini tashqi xatarlar va ichki omillar ta'siri hisobiga 2023-yildagi 5%ni 2024-2025 yillarga siljitadi. 2023 yilda inflyatsiya 9,5% darajasida prognoz qilingan. Tashqi savdo aylanmasi o'sishda davom etgan, 2023 yilda prognoz 58,6 mln. AQSH dollarini tashkil etgan yoki 2022 yilda kutilayotganidan 17,1 foizga ortiq bo'lgan. Davlat byudjeti 2023-yil uchun prognozlar va natijalar. Daromadlar: 2023- yilga mo'ljallangan Davlat budjeti daromadlar prognozi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jahon bozorlaridagi prognozlar va soliq siyosatida rejalashtirilgan o'zgarishlarga asoslanadi. 2023-yil uchun byudjet daromadlari prognozini ishlab chiqishning asosiy omillari:

- inflyatsiya darajasi 9.5% bo'lgan holda YAMIning 5.3%ga o'sishni ta'minlovchi mamlakatning 2023-yil uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozi;
- ayrim tovarlarning jahon bozoridagi narxlarning o'zgarishi prognozi;
- almashuv kursining dinamikasi prognozi;
- tovarlar va xizmatlar eksporti va importi prognozlari;
- 2023-yilda jahon iqtisodiyotining rivojlanish prognozi;

2023-yilda Budjeti daromadlari 232 607 mlrd. So'm prognoz qilingan yoki YAIM ga nisbatan 21,8% (2022 yilda 202 043 mlrd. So'm, YAIM ga nisbatan 22,7 %) O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirishning ustivor yo'nalishlari Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investisiyaviy jozibadorligini yaxshilash - soliq siyosatini takomillashtirishning ustivor yo'nalishlari hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investisiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko'rsatdi, xususan:

✓ birinchidan, umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

✓ ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to'lovchilarning aylanma mablag'larini jalb qiladigan, shuningdek, iste'mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o'rtasidagi kooperasiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan majburiy to'lovlarning mavjudligi;

✓ uchinchidan, soliq to'lovchilar tomonidan xodimlarning Real sonini va mehnatga haq to'lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to'lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

✓ to'rtinchidan, imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog'lom raqobatni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliq va

Bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar hisobiga qo'llab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;

✓ beshinchidan, davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma'muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

✓ oltinchidan, o'tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta'sir Ko'rsatuvchi va insofli tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to'sqinlik

qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo'qligi;

✓ ettinchidan, mahalliy soliq va yig'imlarning ma'muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig'iluvchanlik darajasi etarli emasligi, shuningdek, ko'chmas mulk va er uchastkalarini to'liq hisobga olish va qiymatini ob'ektiv aniqlashning mavjud emasligi.

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'grisida"gi 2017 yil 07-fevral PF-4947-sonli33 va "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28-yanvar PF-60-sonli34 Farmonlari asosida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib quyidagilar O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish asosiy yo'nalishlari etib belgilangan;

✓ iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

✓ soliqlarni unifikasiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operasion xarajatlarni minimallashtirish;

✓ makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, Dunyo tajribasidan ma'lumki, iqtisodiyotni soliq siyosatini takomillashtirish orqali tartibga solish instrumenti har qanday mamlakatning eng muhim yo'nalishi hisoblangan moliyaviy siyosatning dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki sof fiskal funktsiyadan tashqari soliq siyosati ijtimoiy ishlab chiqarishga, uning tarkibiy tuzilishiga va dinamikasiga, joylashishiga, ilmiy-innovasiya taraqqiyotini jadallashtirishga iqtisodiy ta'sir ko'rsatuvchi mexanizm bo'lib ham xizmat qiladi. Byudjet daromadlarini oshirishda soliqlar yig'iluvchanligidagi muammolar va ularni bartaraf etish masalalari O'zbekiston Respublikasi ham boshqa ko'plab davlatlar singari, o'zining turli davlat xarajatlari va xizmatlarini moliyalashtirishda ko'p jihatdan soliq tushumlariga tayanadi. So'nggi yillarda hukumat byudjet daromadlarini oshirishni ta'minlash maqsadida

solliqlarning yig'iluvchanligini yaxshilash yo'llarini o'rganmoqda. Shuningdek, soliq tizimidagi islohatlarni samarali va shaffof amalga oshirish davlatning iqtisodiyotini rivojlantirish va barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Bilamizki, hozirda ham yurtimizda soliq tizimida bir qancha kamchiliklar mavjud. Bulardan biri soliq tizimining murakkabligi bo'lsa ya'na biri ayrim soliqstavkalarining yuqoriligi bilan nomoyon bo'ladi. Ushbu muammolar aynan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi PF-5468-sonli —O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi To'g'risidagi farmoni negizida ilk bor keng ko'lamda qayta ko'rib chiqildi.³⁵ Ushbu farmon doirasida real iqtisodiy o'sishga, tadbirkorlik va biznes faollikni oshirishga, bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom raqobatni rivojlanishiga, shuningdek, soliqlar va boshqa shunga o'xshash majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirishga bir qancha tizimli muammolar aytib o'tildi. Shundan kelib chiqib, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ning samarasiz undirilish tizimi, soliq to'lovchilarga iste'mol mahsulotlarining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan majburiy to'lovlarning mavjudligi, keng ko'lamda ajratilayotgan soliq imtiyozlarining ijrosini monitoring va nazorat qilishning zamonaviy tizimi rivojlantirilmaganligi tufayli xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliqqa tortishdagi ayrim muammolar, shuningdek, individual xususiyatga ega bo'lgan soliq imtiyozlar hisobiga rag'batlantirish amaliyotining keng tarqalganligini sezishimiz mumkin. Bundan tashqari, yurtimizdagi davlat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi PF-5468-sonli —O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risidagi farmoni² soliq organlari va tashkilotlari o'rtasida amalda foydalanilayotgan ma'lumot almashish tizimlari, elektron soliq ma'muriyati hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakllari hozirgi raqamli texnologiyalar asrida yetarli darajada talabga javob bermayapti. Shu bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan soliq turlaridagi stavkalarining yuqoriligi sababli tadbirkorlik va xususiy sektor sohalari o'sishi sekinlashmoqda hamda mavjud xususiy sektorlarda soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlari ko'paymoqda, bu esa yurtimizda yashirin iqtisodiyotni oshishiga sabab bo'lyapdi. Joriy yilning avgust holatiga ko'ra mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotning ulushi 40% ni tashkil etdi va bu taxminan 32 milliard dollarga teng bo'ldi. Bunda qurilish sohasi 80-90 trln. So'm bilan juda katta ulushga ega bo'lyapdi, bu esa, butun yashirin iqtisodiyotning 6-7 foiziga to'g'ri keladi. Keyingi O'rinlarda esa qishloq xo'jaligi, tamaki va alkogol mahsulotlari hamda zargarlik buyumlari savdosi o'rin egalladi.³⁷ Bu ko'rsatkichlar nafaqat soliq tushumlarining

kamayishiga balki mamlakat taraqqiyoti va davlat byudjeti uchun juda katta salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Ayrim rivojlangan davlatlarda bu koʻrsatkichlar bizning yurtimizga taqqoslaganda sezilarli darajada past. Misol uchun, Yaponiyada - 9.6%, Australiyada - 8.7%, Shvetsariya - 7.5%, Amerika Qoʻshma Shtatlarida - 7.3%, Germaniyada - 11.2%, Singapurda - 10.4%, Fransiya esa - 13.1%. 38 Ushbu muammolarni hal etish maqsadida mamlakatimizda soliq qonunchiligi va qoidalarini soddallashtirish, jismoniy va yuridik shaxslarga murakkablik va noaniqlik tugʻdiradigan soliq kodeksiga ijobiy oʻzgartirishlar kiritish, tegishli meʼyoriy-huquqiy hujjatlar va tartib-qoidalarini soddalashtirish, soliq tekshiruvlarini kuchaytirish, soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish tizimlarini yanada takomillashtirish, soliq nazorati organlari uchun texnologiya va treninglarga sarmoya kiritib, hukumat qonunbuzarliklarini aniqlash va soliq toʻlashdan bosh tortganlarni jazolashning mustahkam tizimini yaratish, soliq toʻlovchilarni ixtiyoriy va oʻz vaqtida majburiyatlarini bajarganliklari uchun ragʻbatlantirish va imtiyozlar ajratish hamda soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish orqali iqtisodiy oʻsishni taminlash va byudjet daromadlarini oshirish maqsad qilib olindi.

Aloqa korxonalari va tashkilotlarida mehnat muxofazasi boʻyicha ishlarni tashkil qilish va ularning bajarilishi ustidan nazorat Aloqa xodimlari kasaba uyushmalari yoki viloyat kasaba uyushmalari kengashining texnik nazoratchisi istalgan vaqtda mashina uskunolari, mexanizmlar muvofiqligini, Texnika Xavfsizligi qoidalarini talablari, ishlab chiqarish va binolarning sanitar holati, sanitariya meʼyorlari talablari, mehnat va dam olish rejimiga amal qilishni, maxsus kiyim-bosh, poyafzal, oziq-ovqat va ximoya vositalarining vaqtida berilishini tekshirish huquqiga ega. Har bir korxonada kasaba uyushma raisi saylanadi, uning qoshida jamoa shartnomasini bajarilishini nazorat etuvchi katta jamoat nazoratchisi boshchiligidagi mehnatni muxofaza qilish komissiyasi ishlaydi, baxtsiz xodisalarni tekshirishda, shuningdek, TX qoidalarini bilishlarini tekshirishda ishtirok etadi. Sexlar va boʻlimlarda kasaba uyushmalari aʼzolaridan apparaturalar, asboblarning yaroqligini, ishchi joylarda toʻsiqlarni, blokirovkalarni, xisoblash qurilmalari va isitish tizimlari ishini, yoritilish axvolini nazorat qiluvchi va tozalik xamda tartibga rioya etuvchi mehnat muxofazasi jamoat nazoratchisi tanlanadi. U ishchi joyida instruktaj (yoʻl-yoʻriq) oʻtqazilishi, sexning barcha xodimlari tomonidan Texnika Xavfsizligi yuriqnomalarini oʻrganish, ish vaqti va tartibi rejimi, taʼtillar berilishi, xordiq kunlari, ishchilarni ximoya vositalari bilan taʼminlashni nazorat etadi. Butun aniqlagan kamchilik va nuqsonlar xaqida jamoat nazoratchisi sex ustasi yoki boshligʻiga xabar qilishi va uni ishlab chiqishi lozim.

Mehnat muxofazasi bo'yicha barcha komissiya a'zolari jamoa shartnomasiga kiruvchi MM bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishda ishtirok etadilar. Davlat inspeksiyasi. Jamoa shartnomasi xar yili ishchilar va xizmatchilar jamoasi nomidan va korxona ma'muriyati tomonidan FZMK o'rtasida tuziladi va ma'muriyat, jamoa va xizmatchilarning o'zaro majburiyatlarini belgilaydi. Shartnoma 3 bo'limdan iborat. Mehnat muxofazasi to'g'risidagi bitimdan iborat.

1. Baxtsiz xodisalarni ogohlantirish, oldini olish bo'yicha tadbirlar.
2. Ishlab chiqarishda kasbiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha.
3. Mehnat sharoitlarini umumiy yaxshilash bo'yicha.

Mehnat muhofazasi tadbirlarga ajratilgan xarajatlarni boshqa maqsadlarga sarflash qat'iyan man etiladi. Shartnomada ijro muddatlari va ma'suliyatli shaxslar ko'rsatiladi. Yil oxirida mehnat muhofazasiga ajratilgan mablag'larning zichlashtirilgani va tadbirlar bajarilgani to'g'risida xisobot tinglanadi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ekologik taxdidlarni oldini olish uchun O'zbekistonda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Tabiiyresurslardan, shu jumladan, suv, yer, mineral hom-ashyo va biologikresurslardan kompleks foydalanish.
2. Respublika hududida atrof – muhitifloslanishini ekologik–gigienik va sanitar me'yorlarigachakamaytirish.
3. Ekologik falokat zonasi – Orolbuyida, shuningdek mamlakatning boshqa ekologik nomaqbul hududlarida ekologik holatlarni tiklash va sog'lomlashtirish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish.
4. Respublika aholisini sifatli chimlik suvi, Ozuqa mahsulotlari, dori darmonlarbilanta'minlash.
5. Ekologiktoza va kamchiqitlitexnologiyalarnijoriyetish.
6. Ekologiya sohasidailmiy-texnik salohiyatnioshish, fan va texnika yutuqlaridanfoydalanish.
7. Aholiningekologikta'limi, madaniyati, tarbiyasitiziminirivojlantirishivatakomillashtirish.
8. Ekologik halokatlar, ofatlar, favqulotda vaziyatlar, avariylarni oldini olish va oqibatlarini tugatish.

Xulosa

Ushbu Dissertatsiya ishida soliq tushumlari va byudjet tizimi tasnifi hamda soliqlar yig'uvchanligini oshirish va byudjet daromadlari va xarajatlarini nazorat qilish masalalari

turli tahlillar orqali atroflicha o'rganildi. Birinchi bobda Soliqlar va soliq tushumlarining iqtisodiy mohiyati, obyektiv zaruruligi, soliq siyosati va soliq tizimi hamda Davlat budjetining iqtisodiy mazmuni, funksiyalari va vazifalari o'rganib chiqildi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda davlat moliyasini samarali tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mamlakatimiz davlat budjeti tizimida ushbu maqsadlarga Bu esa aholi turmush faravonligini yuqori bo'lishiga, turmushda tabaqalanishning vujudga kelmasligiga hamda aholining kattagina qismini sotsial himoya qilinishiga olib keladi. Bundan tashqari davlat budjeti va soliq siyosati dolzarb strategik maqsadlarni amalga oshirishi uchun moliyaviy resurslarni ma'lum qismini o'z qo'lida to'plamog'i zarur. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti soliq tushumlarining izchil va etarli darajada ta'minlanishiga tayanadi. Soliq yig'ish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish va yashirin iqtisodiyotning oldini olish iqtisodiy rivojlanishga yordam berishi, davlat xizmatlarini yaxshilashi va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashi mumkin. O'zbekiston uchun soliq qonunchiligini kuchaytirish va daromadlar bazasini kengaytirish, soliq tizimlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va to'liqligicha elektron shaklga o'tish, soliq stavkalarini mamlakat iqtisodiyotiga mos ravishda ishlab chiqish, pirovardida fuqarolar farovonligiga hissa qo'shish bo'yicha sa'yi harakatlarini davom ettirishi zarurdir.

So'ngi yillarda Davlat byudjeti defitsit bilan yopilmoqda. Byudjet defisitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish uchun, birinchi navbatda, iqtisodning o'zini "davolamoq" lozim. Aks holda, ana shu maqsadga erishish uchun ko'zda tutilgan har qanday tadbir, albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Mazkur masalalarni ijobiy hal etish maqsadida zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishning fundamental asoslari byudjet defisitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning eng asosiy yo'nalishlari ishlab chiqib u quyidagilardan iborat bolishi mumkin deb hisoblaymiz:

1. Byudjet xarajat (mablag_)larining investision yo'nalishini o'zgartirish, ularni eng ko'p samara beradigan yo'nalishlarga yo'naltirish;

2. Soliqlar yig'uvchanligini oshirish yo'li bilan byudjet daromadlarini ko'paytirish. Davlat byudjetini taqsimlashda ochiqlik va shaffoflikni yanada oshirish uchun taqsimot jarayoni va yo'nalishlar muhumligini omma e'tiboriga havola etish va jamoat fikirlarini inobatga olgan holda qaror qabul qilish. Xususan bu borada Prezidentimiz ham quyidagicha ta'kidlagan: —Endi davlat budjetining har bir satriga aniq mas'ullar biriktiriladi. Agar

viloyat, tuman va shahar hokimi dunyoqarashini o'zgartirib, mahalliy korxonalarning ishini rivojlantirib, mahalliy budjetga qo'shimcha tushumni ko'paytirmas ekan, iqtisodiyot barqaror bolmaydi. Shuni tushunish kerak

3. Xo'jalik yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi moliyaviy imtiyoz va jazolardan keng foydalanish hamda harbiy xarajatlarni imkon darajasida qisqartirish;

4. Qarzlarni davlat qimmatbaho qog'ozlari shaklida rasmiylashtirmasdan turib hukumat organlariga kredit berishni Markaziy bank uchun taqiqlab qo'yish;

5. Xorijiy sarmoyalarni jalb etish va investorlar oqimini oshirish. Hozirgi global sharoitda zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etishni uning fundamental asoslarini aniqlab olishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tabiiyki, ideal (benuqson) soliq tizimini jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, undagi yaratilgan ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini hisobga oluvchi muhim nazariy asos yordamidagina yaratish mumkin. Soliq tizimi tadbirkorlikning taraqqiy etishiga yordam berishi va bir vaqtning o'zida aholining kam ta'minlangan qatlami turmush tarzining pasayib ketishiga tosqinlik qilishi kerak. Ana shunday sharoitda soliq tizimini tashkil qilishning printsiplari tariqasida quyidagilarni ko'rsatishni to'g'ri deb bildik:

Soliq obektlarining mulkiy ahvolini hisobga olish imkonini beruvchi soliq tizimi, ularning turlari, to'g'ri (bevosita) hamda egri (bilvosita) soliqlar nisbatining bozor iqtisodining rivojlanishiga mos tarzda rivojlanishi;

2. Mulkchilik shakliga va uning tashkiliy-huquqiy shakllariga bog'liq Bo'lmagan holda xojalik yuritishning samaradorligi uchun barcha soliq to'lovchilarga

nisbatan yagona talablarni o'rnatish maqsadida soliqqa tortish uslublarini universallashtirish; 3. Daromad manbai, xo'jalik yuritish sohasi va iqtisodning tarmog'iga bog'liq bo'lmagan holda soliq miqdorini hisoblashda bir xil yondoshish;

4. Soliqqa tortishning bir martalilik tamoyilini ta'minlash;

5. Uzoq vaqt davomida soliq stavkalarining barqarorligini, ularni hisoblashning oddiyligini ta'minlash;

6. Kuchli, aniq ishlaydigan, texnik jihatdan yaxshi jihozlangan soliq xizmatini yaratish;

7. Foyda solig'idan beriladigan imtiyozlar tizimida byudjet tashkilotlariga beriladigan imtiyozlarning salmog'i sezilarli nisbat kasb etadi. Misol uchun, foyda solig'i to'lashdan byudjet muassasalari tarkibiga kiradigan jazoni o'tash muassasalari ozod qilingan. Bu tashkilotlarning xarajatlarini O'zbekiston Respublikasining byudjeti daromadlar va xarajatlar tasniflanishining tegishli moddalari asosida davlat byudjetidan

molialashtirilishini hisobga oladigan bo'lsak, bu muassasalarni foyda solig'idan ozod etilishi fikrimizcha o'z ma'nosiga ega emas.

8. Aktsiz to'lanadigan tovarlarni qo'shilgan qiymat solig'iga tortishda qo'shilgan qiymat solig'i bazasida aktsiz solig'i summasining mavjudligi ham soliq yukining yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun aktsiz to'lanadigan tovarlarni QQSga tortishda soliq bazasidan aktsiz solig'i summasini chegirish lozim. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki:

✓ iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan soliq to'lovchilar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

✓ soliqlarni unifikasiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operasion xarajatlarni minimallashtirish;

✓ makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;

✓ soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini kuchaytirish;

✓ soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish ob'ektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari,

Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

1. 2019-yil 9-noyabrda (O'zbekistonda soliq va moliya tizimining rivojlantirishning konsepsiyalarini amalga oshirish istiqbollari to'g'risida)gi respublika ilmiy-amaliy anjumani muhokamasi; <http://tsue.uz/uz/>

2. 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi qonuni O'RQ-589-sonli 2019 yil 9 dekabr.

3. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: —O'zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, T. 2018 yil 28 dekabr

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risidagi PF-5468 Farmoni. – 2018 yil 29 iyun.

Adabiyotlar

1. —Byudjetnoma: 2023 yil uchun tasdiqlangan budjetl axborot nashri BMT taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

2. —Fuqarolar uchun budjet: 2023 yil uchun tasdiqlangan budjetl axborot nashri BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

3. —Fuqarolar uchun budjet: 2023 yil uchun tasdiqlangan budjetl axborot nashri BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

4. Fuqarolar uchun budjet: 2022 yil ijrosi» axborot nashri BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

5. Gadoyev E., Kuziyeva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik T.:—O'zbekiston, 2012.-336 b.

6. J.R. Zaynalov, B.Sh. Xusanov, S.S. Aliyeva, Sh.M. Latipova; -T.: "Iqtisod Moliya", 2021.-316 b.

7. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma /– T.: —IQTISOD–MOLIYA, 2007 yil bet

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Allayarov, s. (2018). Theoretical study of optimal fiscal and monetary policies for stimulating economic growth.

2. Malikov t.s. Budjet-soliq siyosati. Darslik. – t.: —iqtisod moliya, 2019. – 404 bet

3. O'zbekiston respublikasi moliya vazirligining 2021 yil 30 dekabr "2022 yilda yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibiga kiritilgan asosiy o'zgarishlar to'g'risida"gi 06/04-01-01-32/2987-sonli axborot xati.

4. Vahobov a, jo_raev a. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –t.: sharq, 2009. 526 b.

5. Аллаяров, с. Р., мардонов, ш. Х., & абдурахимова, г. М. (2020). Ретроспективный и целеориентированный подходы к оценке эффективности фискальной политики. Экономика и социум, (4), 138-147.

6. Пўлатова, с. В. Қ., & аллаяров, с. Р. (2023). Валюта курси сиёсатининг замонавий молия-валюта тизими ва иқтисодий ўсишга таъсири. Science and education, 4(1), 971-978.

